

## DABUSIYA YODGORLIGINING JOYLASHUVI VA TARIXIY TOPOGRAFIYASINING TAHLILI

J.Shukurov  
V.Uztemirov

**Annotatsiya:** *Tadqiqot ishi materiallari va ilmiy xulosalardan O'zbekiston tarixinining o'rta asrlar davri, Dabusiya tarixi, hunarmandchiligi, undan chiqqan allomakarning ilm-fan rivojida tutgan o'rni, ularning hayyoti va ilmiy merosini hamda Dabus qal'a yodgorligidagi epigrafik manbalarni yoritish, buyuk ajdodlar merosi kabi mavzularda tarix, adabiyot fanlaridan ma'reuza matnlari tayyorlashda hamda litsey va o'rta maxsus maktablar uchun qo'llannalar tayyorlashda ahamiyatga ega bo'lishi e'tiborga olingan.*

**Kalit so'zlar:** *qal'a, rabot, Zarafshon, Miyonqol, ark;*

Zarafshon vohasi Markaziy Osiyoning qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblanadi. Bu vohada odamzod ilk paleolit davridan e'tiboran qo'nim topgan. Keyingi tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida odamzot yashab madaniyat uzlusiz rivojlanishda bo'lganligini vohada tadqiq etilgan arxeologik yodgorliklar isbotlab turadi. Bu uzoq o'tmish tarix bilan bog'liq madaniy jarayon bu yerda o'ziga xos mahalliy sivilizasiyaning shakllanganligi va rivojlanishiha ilmiy asos beradi.

Zarafshon vodiysi boshqa vodiylardan farqli o'laroq, O'rta Osiyoning markaziy qismida, Turkiston - Oqtov bilan Zarafshon tizmalari orasida joylashgan ko'ndalang vodiyydir. Uning sharqi tog'li qismi Tojikiston, g'arbiy tog' etagi va tekislik qismi O'zbekiston hududida joylashgan. Daryoning uzunligi 877 km, havzasining umumiy maydoni 11710 km<sup>2</sup>, shundan tog'li qismi 17710 km<sup>2</sup>, qolgan joylari tog'oldi irmoqlari va tekisliklardan iborat<sup>37</sup>.

Zarafshon o'zining birinchi yirik irmog'i - Fandaryo kelib quyilgan joyigacha Mastchoh deb ataladi. Mastchoh daryosi Zarafshon muzligining quiyi chegarasida 2775 m balandlikdan boshlanib, yagona o'zanida baland qoyali va tor tog' darasi bo'ylab g'arbgaga tomon oqadi. Daryo yuqori qismining kengligi 25 m bo'lib, har kilometr masofada, o'rtacha hisob bilan 7 m pastga tushadi, shuning uchun ham u juda tez va hayqirib, o'ynab oqadi, tosh, qum hamda loyqa kabi oqizindi jinslarni o'zi bilan ko'p miqdorda olib keladi. Mastchoh daryosiga Fandaryoning suvi chap tomonidan kelib qo'shiladi va shu joydan boshlab u Zarafshon nomini oladi. Samarkand shahridan 7 km shimoli-sharqda Cho'ponota balandligi yakinida Zarafshon shimoliy o'zan - Oqdaryo va janubiy o'zan Qoradaryoga ajralib, Miyonqol orolini hosil qiladi (1-rasm). Miyonqol orolining uzunligi 100 km, eni 12-15 km<sup>38</sup>.

Samarqand viloyati Paxtachi tumani hududidan oqib o'tuvchi Zarafshon daryosining chap qirg'og'i Dabusqa'la qishlog'ining shimoliy tomonida Dabusiya yodgorligi xarobalari saqlanb qolgan (2-rasm).

<sup>37</sup> O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Tom III. –T.: 2002. –B. 675.

<sup>38</sup> Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. –T.: 1972. –B.25.

Yodgorlik uch qisimdan: Ark, shahriston va raboddan iborat bo'lib, ark yodgorlikning shimoli - g'arbiy burchagida joylashgan. Arkning shimoliy qismidan Zarafshon daryosi oqib o'tadi, g'arbiy qismi esa baland mudofaa devori bilan o'ralsan. Arkning janubiy qismi shahristondan chuqur xandak orqali ajratilgan. Ark bilan shahriston faqatgina sharqiy tomonidan bir-biriga tutashgan.

Arkning shimoliy qismini hozirda Zarafshon daryosi yuvib bormoqda, daryo yuvgan tomonda 5-6 metrlik madaniy qatlam va unda mavjud bo'lgan badrablar yaqqol ko'rini turadi.

Yodgorlikning shahriston qismi ark bilan rabodning o'rtasida joylashgan bo'lib uning deyarli barcha qismi qadimgi va zamonaviy qabriston bilan qoplangan.

Shahristonning janubiy qismi tekslanib ekinzorga aylantirilganligi uchun uning aniq hajmini aniqlash mushkul. Shahristonning janubi - g'arbiy qismida pishiq g'ishtlardan barpo qilingan maqbara mavjud. Maqbaraning ichkarisida va tashqarisida bir necha qabrlar saqlangan. Bu yerdag'i qabrtoshlarda epigrafik yozuvlar ham bor.

Maqbara ichiga dafn qilingan shaxs haqida har xil fikirlar mavjuddir. Ayrimlar ushbu maqbaraga Abu Xurayra dafn etilgan deb yozgan bo'lsalar, ayrimlar bu maqbaraga Imom Bahra ota nomli shaxs dafn etilgan deb yozganlar. Bu holatga bu yerda olib borilgan epigrafik tadqiqotlar aniqlik kiritadi.

Yodgorlikning rabodi uchta alohida turgan tepaliklarda bo'lganligini taxmin qilishimiz mumkin. Chunki bu tepaliklarni o'rganmay turib aniq bir fikr aytish mushkil.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Dabusiya shahar aholisi doimo loyqalanib oqadigan Zarafshon daryosi suvini iste'mol qilmagan. Chunki, qal'a daryodan 25-30 metr balandlikda va 200-300 metr chetda joylashgan. Bu esa shahar aholisini muntazam ichimlik suvi bilan ta'minlash imkonini bermagan. Shahar ichimlik suvi Zirabuloq tizma tog'lari bag'rida joylashgan Daraytut qishlog'i buloqlaridan yer osti sopol quvurlari orqali olib kelingan. Yer osti quvurlari saltam 20 chaqirim uzoqlikdan tortib kelingan. Qazishma jarayonida bu sopol quvurlar topildi va ayni paytda ularning namunalari tuman muzeyida saqlanmoqda.

Dabusqal'ning arxeologik yodgorlik sifatidagi mahobati albatta uning tarixiga qiziqish uyg'otgan. Qiziqishlar XIX asrning oxirlaridan, O'rta Osiyo hududi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin boshlangan. Rus qo'shnulari bilan birga kelgan tarixga qiziquvchi harbiy zabitlar, ulardan keyin bu yerga tashrif buyurgan olimlar, yozuvchilar va ziyolilar vakillari O'rta Osiyoning ko'plab tarixiy va arxeologik obidalariga qiziqish bilan qaraganlar. Ular haqidagi o'zlarining qimmatli ma'lumotlarini kundaliklarida yozib qoldirganlar.

XIX asr oxirida Dabusqal'aga harbiy topograf Sitnyakovskiy N.F. tashrif buyurgan va shahar xarobalarini ko'zdan kechirgan<sup>39</sup>. Dabusqal'ani tarixiy yodgorlik sifatida dastlabki o'rganish L.A.Zimin tomonidan 1915 yilda amalga oshirilgan. Olim Dabusiya shahri bilan bog'liq tarixiy yozma manbalar to'plagan va ularni nashr ettirgan<sup>40</sup>.

Keyingi davrlarda bu yerda arxeolog olimlar G.A.Pugachenkova, Rtveladze E.V., Turgunov B.A., Buryakov Y.F., Rostovtsev O.M., Sh.T.Adilovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo'lsalarda yodgorlikning maxsus o'rganish borasida yirik tadqiqotlar amalga

<sup>39</sup> Ситняковский Н.Ф. О древностях в районе Зеравшана. // ПТКЛА. Год третий. –Т.: 1898. –С.92.

<sup>40</sup> Зимин Л.А. Кала-и-Дабус. // ПТКЛА. Год двадцать первый. –Т.: 1917. –С.64.

oshirish imkoni bulmagan. Lekin shu davrda Dabusqal'ada arxeologik dala qidiruv ishlari olib borilib yodgorlik “O'zbekistonning arxeologik yodgorliklari majmui” ga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti xodimlari Yaponianing Kioto shahridagi Yapon madaniyatini o'rganish xalqaro ilmiy markazi olimlari bilan hamkorlikda 2007-2012 yillari Dabusqal'a yodgorligida qazishma ishlarini olib borilgan. Ekspeditsiyaga Yaponiya tomonidan professor Uno Takao va O'zbekiston tomonidan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti direktori, tarix fanlari nomzodi Amriddin Berdimurodov rahbarlik qilgan.

Yodgorlik uch qism: ark, shahriston va rabotdan iborat bo'lib, ark yodgorlikning shimoliy - g'arbiy burchagida joylashgan. Shaharning birinchi qismi bo'l mish Arkning shimoliy qismidan Zarafshon daryosi oqib o'tadi, g'arbiy qismi esa baland mudofaa devori bilan o'ralgan. Arkning janubiy qismi shahristondan chuqur xandak orqali ajratilgan. Ark bilan shahriston faqatgina sharq tomonidan bir-biriga tutashgan.

Arkning shimoliy qismini hozirda Zarafshon daryosi yuvib bormoqda, daryo yuvgan tomon 5-6 metrlik madaniy qatlam va unda mayjud bo'lgan badrablar yaqqol ko'rinih turibdi<sup>41</sup>.

Shaharning ikkinchi qismi bo'l mish Shahriston arkni shimol, sharq va janub tomonlardan to'laligicha o'rab turadi va uning o'zi ham kvadrat shakliga yaqin tarxga ega. Shahristonning umumiyligi maydoni 23 ga bo'lib u mahobatli mudofaa devorlari bilan himoyalangan<sup>42</sup>. Mudofaa devorlarida olib borilgan tadqiqotlarda uning strukturasida keng devor ichi koridorlari borligi aniqlangan. Shahristonning janubiy va janubi - sharqiy tomonida eni 50-60 m bo'lgan keng, mudofaa chohi o'tgan, bu choh esa shahristonni rabotdan ajratib turadi.

Shaharning uchunchi qismi bo'lgan rabot shahristondan janubga qarab cho'zilgan. Uning atrofi mudofaa devorlar bilan o'ralgani hozircha urganilmagan, nomalum. Shahriston mudofaa devorining bir kismi shaharchaning janubi-g'arbiy qismida saqlanib qolgan.

Arkda hukmdor, uning yakinlari, administrativ apparat, kuriklovchi garnizon; shahristonda aslzodalar, mansabdorlar, savdogarlar va oddiy xizmatkor shaharliklar istiqomat qilganlar. Rabotda esa bozorlar, karvonsaroylar, kushxonalar, hunarmandlarning ustaxonlari bo'lib ular shu yerda yashagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Tom III. -T.: 2002. -B. 675.
2. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. -T.: 1972. -B.25.
3. Ситняковский Н.Ф. О древностях в районе Зеравшана. // ПТКЛА. Год третий. -T.: 1898. -C.92.
4. Зимин Л.А. Кала-и-Дабус. // ПТКЛА. Год двадцать первый. -T.: 1917.

<sup>41</sup> Berdimuradov A.E., Uno Takao, Rahimov K.A. Dabusiyada o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar//Uzbekistonda arxeologik tadkikotlar 2006-2007 yillar. 6soni. -T.: Fan, 2009. -B.76.

<sup>42</sup> Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. -Л.: 1972. -C.189

-C.64.

5. Berdimuradov A.E., Uno Takao, Rahimov K.A. Dabusiyada o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar//Uzbekistonda arxeologik tadkikotlar 2006-2007 yillar. 6soni. -T.: Fan, 2009. -B.76.

6. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. -Л.: 1972. -С.189.